

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Soatova Shahribonu Baxtiyor qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining
Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishining talabasi.

Gmail: soatovashahribonu@gmail.com

telefon raqam: +998944220719

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20553563>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tilshunoslik va metodikaga oid ilmiy manbalar o'rganilib, kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentlari — lingvistik, sotsiolingvistik, diskurs, strategik va pragmatik kompetensiyalar yoritildi. Natijalarga ko'ra, kommunikativ kompetensiya faqat grammatik bilimlarni emas, balki ularni real muloqot jarayonida to'g'ri va samarali qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, diskurs, pragmatika, sotsiolingvistika.

Abstract. This article analyzes the concept of communicative competence and its main components. The study is based on the review of linguistic and methodological literature, focusing on the structural elements of communicative competence, including linguistic, sociolinguistic, discourse, strategic, and pragmatic competences. The findings show that communicative competence is not limited to grammatical knowledge of a language, but also includes the ability to effectively use language in real-life communication situations. The development of communicative competence significantly enhances an individual's ability to interact successfully in social and professional contexts.

Keywords: communicative competence, linguistic competence, sociolinguistics, discourse, pragmatics, communication skills.

Zamonaviy jamiyatda muloqot inson hayotining barcha sohalarida muhim o'rin egallaydi.

Globalashuv jarayoni esa turli madaniyat va tillar o'rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirmoqda. Shu sababli kommunikativ kompetensiya tushunchasi tilshunoslik va pedagogikada dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya shaxsning til vositalaridan nafaqat to'g'ri, balki vaziyatga mos va samarali foydalanish qobiliyatini bildiradi. Ushbu maqolaning maqsadi kommunikativ kompetensiya tushunchasini ilmiy jihatdan yoritish va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishdir.

Kommunikativ kompetensiya — bu insonning tilni nafaqat bilishi, balki uni real muloqot jarayonida to'g'ri va maqsadga muvofiq va samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Bu tushuncha tilshunoslik va tarjimashunoslikda juda muhim hisoblanadi va buning asosiy mazmuni: insonning fikrini aniq ifodalashi, boshqalarni to'g'ri tushunishi, vaziyatga mos til uslubini tanlashi va muloqotda madaniy me'yorlarga amal qilishi kabi ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiya atamasi D. Hymes tomonidan tilshunoslikka kiritilgan bo'lib, u tilni faqat grammatik qoidalar tizimi sifatida emas, balki ijtimoiy vaziyatda qo'llaniladigan vosita sifatida

ko'radi. Keyinchalik M. Canale va M. Swain bu tushunchani rivojlantirib, uni bir nechta komponentlarga ajratgan.

Lingvistik kompetensiya — bu insonning til tizimini (grammatika, lug'at, tovushlar va yozuv qoidalari) bilishi va uni to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir. Bu tushuncha tilshunoslikda N. Xomskiy (Noam Chomsky) tomonidan kiritilgan bo'lib, u tilni "qoidalar tizimi" sifatida o'rganishga asos bo'ladi. Lingvistik kompetensiyaning mohiyati shundan iboratki; Lingvistik kompetensiya — bu shaxsning, tilning grammatik qoidalarini bilishi, so'z ma'nolarini to'g'ri tushunishi, gaplarni to'g'ri tuza olishi va yozma, og'zaki nutqda xatolarsiz ifoda etishi kabi bilim va ko'nikmalar yig'indisi hisoblanadi. Bundan tashqari, lingvistik kompetensiya tilning grammatik, leksik va fonetik tizimini bilish va to'g'ri qo'llash qobiliyatidir. Misol uchun; Noto'g'ri: He go to school every day. To'g'ri: He goes to school every day.

Sotsiolingvistik kompetensiya — bu tilni turli ijtimoiy vaziyatlarda, turli odamlar bilan muloqotda va madaniy muhitga mos holda to'g'ri ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Sotsiolingvistik kompetensiyaning mohiyati shundan iboratki; Bu kompetensiya insonning: ijtimoiy holatni tushunishi, suhbatdoshning yoshi, mavqei va munosabatini hisobga olishi va madaniy odob-axloq me'yorlariga rioya qilishi, vaziyatga mos so'z va uslub tanlashi kabi ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Sotsiolingvistik kompetensiya nutqni ijtimoiy vaziyatga moslashtirishni anglatadi. Misol uchun; Rasmiy: Could you please help me? Norasmiy: Can you help me? **Diskurs kompetensiya** (discourse) — bu tilning faqat alohida gap emas, balki bog'langan, mazmunli nutq yoki matn sifatida ishlatilishidir. Diskursning mohiyati— bu diskurs faqat grammatika yoki so'zlardan iborat emas, balki: kim gapiryapti, kimga gapiryapti, qaysi vaziyatda, qanday maqsadda shu omillarni ham o'z ichiga oladi. Diskurs kompetensiya nutq yoki matnni mantiqan bog'langan va izchil shaklda tuzish qobiliyatidir. Misol uchun; "I woke up early in the morning. After that, I had breakfast and went to school. Then I attended my classes and did my homework in the evening." Bu hikoyaning gaplar bir-biri bilan bog'langan va hikoya izchildir

Strategik kompetensiya — bu muloqot jarayonida tilni yetarli darajada bilmaslik yoki tushunmovchilik yuzaga kelganda, suhbatni davom ettirish va ma'noni yetkazish uchun turli kommunikativ strategiyalarni qo'llash qobiliyatidir. Strategik kompetensiyaning mohiyati— bu kompetensiya insonga: so'z esidan chiqib qolsa ham fikrni davom ettirish, tushunmovchilikni bartaraf etish, muloqotni to'xtatib qo'ymaslik bilan birgalikda alternativ usullar bilan fikr yetkazish imkonini beradi. Asosiy vazifalari; muloqotni uzib qo'ymaslik, fikrni boshqa so'zlar bilan ifodalash va tushuntirish va aniqlashtirish, imo-ishora yoki misollar orqali gapni yetkazish kabi vazifalarni bajaradi. Strategik kompetensiya muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish qobiliyatidir. Misol uchun;

"Can I borrow your... um... the thing you use to charge your phone? I forgot the word, but it plugs into the wall." Bunda so'z yetishmasa ham fikrni tushuntirib berish ya'ni "charger" so'zi esdan chiqqan, lekin fikr baribir tushuntirilgan.

Pragmatik kompetensiya — bu tilni vaziyatga mos ravishda to'g'ri va samarali qo'llash qobiliyatidir. Ya'ni, inson faqat grammatik jihatdan to'g'ri gapirishni emas, balki, qachon, kimga, qayerda, qanday maqsadda gapirishni bilishi kerak Asosiy mazmuni: Pragmatik kompetensiya nutqning ma'nosi kontekstga bog'liqligini tushunish va shu asosda to'g'ri ifoda tanlashdir.

Misol: Do'stingizga: "Close the door, please." O'qituvchiga: "Could you please close the door?" Ma'no bir xil, lekin vaziyat va hurmat darajasiga qarab ifoda o'zgaradi. Pragmatik kompetensiya nutqning kontekstga mosligini va yashirin ma'nolarni tushunishni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistik, diskurs, strategik va pragmatik kompetensiyalar tilni samarali qo'llashda muhim ahamiyatga ega. Sotsiolingvistik kompetensiya nutqni ijtimoiy vaziyatga moslashtirishni, diskurs kompetensiya esa fikrlarni izchil va bog'langan holda ifodalashni ta'minlaydi. Strategik kompetensiya muloqotdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam bersa, pragmatik kompetensiya tilni kontekstga mos va to'g'ri maqsadda ishlatishni o'rgatadi. Ushbu kompetensiyalar birgalikda shaxsning kommunikativ qobiliyatini rivojlantiradi va samarali muloqotni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bachman, L. F. (1990). *Fundamental Considerations in Language Testing*. Oxford: Oxford University Press, pp. 81–120.
2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), pp. 1–47.
3. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. Harmondsworth: Penguin, pp. 269–293.
4. Komissarov, V. N. (1990). *Teoriya perevoda*. Moskva: Vysshaya shkola, pp. 45–97.
5. Salomov, G'. (1978). *Tarjima nazariyasiga kirish*. Toshkent: O'qituvchi, pp. 10–65.
6. Widdowson, H. G. (1978). *Teaching Language as Communication*. Oxford: Oxford University Press, pp. 15–58.